

**OILADA BOLALARNI XALQ OG'IZAKI IJODI VOSITALARI ORQALI
AXLOQIY TARBIYALASH
ЭТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ ПОСРЕДСТВОМ
УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА НАРОДА
ЭТИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДЕТЕЙ В СЕМЬЕ ПОСРЕДСТВОМ
УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА НАРОДА**

Xolmatova Madina Barot qizi

Zafarabod tuman 2-sonli MTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada bolalarni xalq og'zaki ijodi orqali axloqiy tarbiyalash masalalari yuzasidan ma'lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье представлена информация по вопросам нравственного воспитания детей в семье через фольклор.

Annotation: This article provides information on the moral education of children in the family through folklore.

Kalit so'zlar: Oila, bolalar, xalq og'zaki ijodi, axloqiy tarbiya vosita.

Ключевые слова: семья, дети, фольклор, нравственное воспитание.

Keywords: Family, children, folklore, moral education.

Xalq ijodi xalq ommasining badiiy, ijodiy-amaliy va havaskorlik faoliyatidir. Yaratilishi va ijodiy jarayonida ko'pchilikning ishtiroki bo'lgan xalq ijodining turlari xalq turmush tarzi, yashash sharoitlari, ijtimoiy mehnat darajasiga mos ravishda shakllanib, avloddan-avlodga, ustozdan-shogirdga o'tib, doimiy ravishda mukammallashib, sayqallashib, tobora an'anaviylashib borgan va nihoyat kasbiylik xususiyatiga ega bo'lgan, jonli ijro shaklida va kundalik amaliyotda bizgacha yetib kelgan. Inson nutqi shakllanishi bilan xalq og'zaki badiiy ijodining qadimiy tur va janrlari ham qorishiq holda yuzaga kela boshladi.

Bolalar kichik yoshdan boshlab xalq og'zaki ijodi namunalari, ayniqsa, «Yoriltosh», «Ur to'qmoq», «Dehqon bobo», «Qizil gul» va boshqa ertaklarni sevib tinglaydilar va mutolaa qiladilar. 3-5 yoshli bolalar ertak, sanama kabilarni qiziqib tinglaydilar, 5–6(7) yoshli bolalar esa tez aytishlarini alohida e'tibor bilan o'rganadilar.

SHu jihatdan olganda, xalq og'zaki ijodi namunalari asosida oilada bolalarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunda, ayniqsa, buvi va bobolarning o'rni muhimdir.

Oila tarbiyasida kitobxonlik, ma'naviy suhbat, xalq og'zaki ijodiga oid ertak, qo'shiq, afsona kabilardan foydalanish ota-onalar, bobo-buvilar tomonidan farzandlarni axloqiy-estetik tarbiyalashda katta o'rin tutadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun kattalar ota-ona, buvi yoki buva tomonidan aytib berilgan ertaklar ularning hissiyoti, dunyoqarashi, borliqni badiiy-estetik idrok etishiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi asosiy manbadir. Oilada bir yoshgacha bo'lgan bolalar uchun ona «Alla»sining tarbiyaviy ahamiyati muhimdir. X asr Markaziy Osiyo xalqlarining mashhur mutafakkiri va xalq tabobatining buyuk namoyondasi Abu Ali ibn Sino ona «alla»sining tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr bildirib, bolaning talabini qondirmoq uchun unga ikki narsani qullamoq kerak, chunonchi: biri - bolani asta-sekin tebratish; ikkinchisi-uni uxlatish uchun odat bo'lib qolgan musiqa – ona allasi zarurdir, deydi. Ona allasida volidaning o'z farzandiga beqiyos muhabbati ifodalanadi. Uning so'zlari ham o'ta samimiy, sokin va betakrordir. Unda onaning ruhiy kechinmalari, farzandi kelajagidan umidvorligi, bolasiga baxt va iqbol tilashi aks etad.

Xalq og'zaki ijodi janrlaridan biri ertaklar bolaning ilk yoshidanoq uni quvonchli tuyg'ularga oshno qiladi. Bola ertak qahramonlari bilan birga olis-olislarga «sayohat qiladi». U yerdagi hayot bilan tanishadi. Ertak uning aqlini charxlaydi, tafakkurini boyitadi, faraz qilish qobiliyatini o'stiradi. Ertakning ravon, obrazli til uslubi bola nutqini rivojlantiradi. Yorqin, hayotiy obrazlar uning hissiyotlariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. U aqlli, oqko'ngil, ijobiy qahramonlar bilan tanishadi, ular falokatga yo'liqqanida qayg'uradi, g'alaba qilishganida, yovuz va xasis kishilarni jazolaganlarda xursand bo'lishadi. Ertakning ishonchli axloqiy g'oyalari bolani fikrlashga, o'z xatti-harakatini sevimli ertak qahramonlarining xatti-harakatlari bilan qiyoslashga undaydi, qahramonlar timsolida bolalar qo'rqmas va rostgo'y bo'lishga o'rganadilar. O'z oldilariga aniq maqsadlar qo'yish, unga erishish uchun harakat qilish, turli to'siqlarni yengib o'tish, do'stlariga yordam berish,

o'rtoqlariga sadoqatli bo'lish kabi sifatlarni bosqichma-bosqich egallab borishadi. Bola 2-3 yoshidanoq ertaklarni qiziqish bilan tinglaydi. Ertak bolaning yoshiga mos bo'lishi zarur. Ertakni sekin-asta, shoshmasdan, ifodali o'qish, obrazlar qiyofasini bola ko'z oldida gavdalantirish zarur. Farzand bilan birgalikda ota-onalar ham ertakka mos chizilgan syujetli rasmlarni tamosha qilishlari, ularni sharhlab berishlari lozim. Bolaga unchalik murakkab bo'lmagan savollar berish, uni ertak yoki rasmni qayta so'zlab berishga undash amaliy pedagogik jihatdan juda foydalidir. Bu bolaning xotirasi va diqqatini rivojlantirib, o'qilgan narsaga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. Bolaning hayotiy tajribasi bu davrda xali juda oz bo'ladi. Ertak va real olam uning nazarida mutlaqo farq qiladi. Bola «chindan ham jodugar kampir, dev, uchar gilam bo'lganmi?» kabi savollarni beradi. Bunday paytda ota-ona hushyorlik bilan ertaklar bilan moddiy borliq orasida aloqadorlikni hamda farqlarni tushuntirib borishi lozim. Aks holda uning faraz qilish qobiliyatiga putur yetadi. Ertaklarga ishonchsizlik bilan qaray boshlaydi. Natijada ularga bo'lgan qiziqishi so'nib boradi. Masalan, uchar gilamlar o'rniga fan-texnika, davr taraqqiyoti natijasida samolyotlar, oynai jahon o'rniga televizor ixtiro qilinganligini ehtiyotkorlik bilan tushuntirish lozim. Bola ulg'aygan sari ertak va real olam o'rtasidagi aloqadorlikni yaxshi anglab boradi hamda ulardagi axloqiy-estetik qarashlarni chuqurroq o'zlashtirib oladi.

Xalq pedagogikasidan ma'lumki, insonning mukammal, komil bo'lib kamol topishi juda ko'p ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ostida vujudga keladi.

Bolaning ilk rivojlanishi to'g'risida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deydi: “Ko'p yillik ilmiy kuzatish va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson o'z umri davomida oladigan barcha informatsiyaning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan”.¹

Bolaning sihat-salomat o'sishi, umumrivojlanishiga ularda o'z-o'ziga xizmat mehnat turini hosil qilinganligiga ham bog'liq ta'sir e'tadi. Bolalarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda o'z-o'ziga xizmat mehnat

¹ . I.A.Karimov . yuksak ma'naviyat engilmas kuch. T.: “Ma'naviyat”, 2008 yil, 53-bet.

ko'nikmalarni tarbiyalashda xalq og'izaki ijodi janrlaridan foydalanish samarali ta'sir etadi.

“Xalq og'izaki ijodi badiiy tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan eng ilg'or va hayotbaxsh an'analarni o'zida mujassamlashtirgan ma'naviyat sarchashmasidir”.²

Xalq og'zaki ijodi tarixiy ijtimoiy tarqqiyoti mobaynida shakllanib kelgan. Bu ijod namunalari mazmunan rang-barangligi xalqning turmush tarzi mehnati xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog'langan.

Xalq og'zaki ijodi janrlari turlichadir: ularga afsona, rivoyat, ertak, latifalar, tarixiy qo'shiqlar, xalq qo'shiqlari, qo'g'irchoq o'yinlari, askiyalar kiradi. Xalq og'zaki ijodining kichik janrlari maqol, tez aytish, topishmoqlar bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarurdir. Tez aytishlar og'zaki nutq mashqi bo'lib kichik yoshdagi bolalarda tovushlarni to'g'ri ohangda so'zlashga o'rgatish bilan birga bolalarga estetik zavq bag'ishlaydi. Topishmoqlar esa bolani o'ylashga va topqirlikga o'rgatadi. Maqollar xalqning aqlu farosati hamda turmush tajribasining yakuni ular donishmandlik mahsuli. Bolalarda barcha tarbiya turlariga oid ko'nikmalarni tarbiyalashda maqollardan unumli foydalanilsa, tarbiyaviy ta'sir kuchini yanada ortiradi.

Bolalar ilk yoshdan boshlab oilada, mahallada, bog'chada o'zini qanday tutish, muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, yechinish, saramjon – sarishta yurish, odobli, mehnatsevar bo'lish, boshqalar mehnatini qadrlash kabi odatlarga o'rgatiladi. Ana shu odatlar bolani odob – ahloq mehnatga layoqatli qilib tarbiyalash mazmunining asosini tashkil etadi.

Yuqoridagi ko'rsatgichlarni oilada bolalarda tarkib toptirishning turli uslub, usul, shakl va vositalari mavjud bo'lib, har bir yosh bosqichi turlicha yondashishni talab etadi. Masalan, xikoya qilish, ertak o'qib berish, she'r yod oldirish, tushuntirish, pand-nasixat, o'rnak ko'rsatish kabilardan foydalanish mumkin.

² U.Jumanazarov .O'zbek bolalar milliy o'yinlari va folkliyorning dolzarb muammolari. “Milliy sport turlari va xalq o'yinlari – milliy qadryatimiz” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami, Jizzax sh., 2005 yil, 28-30 aprel, 30-bet.

- hikoyadagi obrazlarning aksariyati majoziyli bolalarda qiziqishni yuzaga keltiradi;

- hikoyadagi voqealikning soddaligi bolalarda soda tarzdagi xulosa chiqarishga olib keladi;

- bu yosh davrida uzoq muddatli diqqatni to'plash hali to'la shakllanmagan bo'lmaganligi uchun, hikoyalar hajmi juda ixcham, lekin mazmunga boyligi bilan bolalarga mos keladi.

Oilada bolalarni o'z-o'ziga xizmat mehnat turida bolalarning madaniy – gigiyenik ko'nikmalarga amal qilishi avvalo bolani tanasini har xil kasalliklardan asraydi. Zero, “Sog'lom tanda, sog' aql” . **“Tozalik sog'lik garovi”** – yoz oylari yaqinlashgani sari turli xil mevalar pishadi. Shu mevalarni bolalar yuvmasdan yeyish sog'liqlari uchun zarar ekanligini bilmaydilar, bilsalar ham ko'p hollarda unga rioya qilaverishmaydi. Shuning uchun oilaning katta a'zolari bu borada bolalarga *“ko'rsatmali shaxsiy namuna”* bo'ladilar. Bolalarga to'g'ri va aniq, sodda qilib ma'lumotlar berib borilishi lozim. Doim bolalarga, uy hayvonlari va o'yinchoqlar bilan o'ynaganda, ovqatlanishdan avval qo'llarini sovunlab yuvushni o'rgatishimiz lozim.

Ertaklar bolani quvonchli tuyg'ularga oshno etadi. Bola aqlini charhlaydi, tafakkurini boyitadi, faraz qilish qobiliyatini o'stiradi. Ushbu xususiyatlardan kelib chiqib ma'daniy-gigiyenik ko'nikmalarni ertak qahramonlarida gavalantirish mumkin.

Ertakni hikoya qilib beruvchilar (ota-ona, tarbiyachi va boshqalar) uslubiga ko'ra ular ham o'z navbatida ikki turga: ijrochi va ijodkor ertakchilarga bo'linadi. Birinchi turdagi ertak aytib beruvchi eshitgan ertagini qanday bo'lsa, shunday bolaga aytib beradi. Ikkinchisi esa iste'dodli, eshitgan, o'rgangan ertaklarini ijro etmay yangiliklar kiritadi, ertak mazmuniga ta'sir etmagan holda ta'sir kuchini oshiradi, eng muhimi tinglovchi dunyoqarashi saviyasiga moslashtiradi.

Ertaklar asosida bolalarda o'z- o'ziga xizmat ko'rsatish bilimlarni berishda ikkinchi ertak aytuvchi ya'ni, ijodkorlik talab etiladi. Ertakni bolaga aytib berish

jarayonida ertak mazmunini buzmasdan, ertak qahramonlarida o'z-o'ziga xizmat mehnat ko'nikmalarni mavjudligiga alohida urg'u berish lozim.

Oilada bolalarni o'z-o'ziga xizmat mehnat turi asosida tarbiyalashda ertak, hikoyalardan foydalanish o'ziga xos ahamiyatga ega bo'lib, quyidagilarga amal qilish zarur:

- Bolalrning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, tarbiyaviy jarayonda xalq og'izaki ijodi bo'lgan hikoyalar va ertaklardan o'z o'rnida foydalanish;
- Ota – onalar qo'llayotgan hikoya va ertaklari mazmunini soddaroq qilib bola ongiga etkazishi;
- Ota onalarning o'zlari o'z-o'ziga xizmat mehnat turida shaxsiy namuna bo'la olishi va shu kabilar.